

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10783530>

ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI

Dilnoza Aliboyeva

Namangan viloyati Norin tumani 43-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta ’lim oluvchilarining nutqini o ‘stirishda leksikologiyani o ‘rni, uni o ‘rganish, amaliy yo ‘nalishini kuchaytirish, nutqiy taraqqiyotiga xizmat qildirish maqsadga muvofiqligi haqida fikrlar bayon qilingan. Til o ‘rganayotgan paytimizda, bizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotimiz bilan bog ‘liq bo ‘lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini ilmiy shaklda fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, pedagogika, nutq, so‘z, qo ‘shma gaplar, leksikologiya.

Tilimizdagi so‘zlarning juda katta qismi ko‘p ma’nolidir, chunki kishilar o‘zining kundalik hayotida yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so‘zlar qo‘llayveradigan bo‘lsa, so‘zlarning soni o‘ta ko‘payib ketib, ulami xotirada saqlash mumkin bo‘lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo‘lardi.

Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarning turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo‘lgan so‘zlarga yangi-yangi ma’nolar yuklanadi. Natijada ko‘p ma’noli so‘zlar maydonga keladi.

O‘quvchilar so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini bilsalargina, nutqda undan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanadilar. Gaplarda yoki matnda ajratilgan so‘zlarning ma’no xususiyatlari ustida ishslash, so‘zlar anglatgan ma’no voqealikka (narsa-buyumlarga)

munosabatini aniqlash, so‘zning ko‘chma ma’nosini bilan so‘z birikmasi hosil qilish, berilgan so‘z birikmasida so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini sharhlash kabi amaliy ishlar o‘quvchilar nutqini o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Masalan, ko‘z so‘zi dastlab faqat «tirik organizmning qavariq shaklga ega bo‘lgan ko‘rish a’zosi» ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik «qabariqlik» ma’nosini faollashtirish asosida «daraxtning ko‘zi», «yorug‘lik bilan ta’minalash» ma’nosini faollashtirish orqali «derazaning ko‘zi» ma’nolarida qo‘llanila boshlandi. O‘quvchilar “Hozirgi yoshlarimizga **ko‘z tegmasin**, ular bizdan ko‘ra aqlliyoq, bilimdonroq bo‘lib o‘sishmoqda”, “Rahimaning uzoqdan kelayotgan otliqqa **ko‘zi tushdi**”, “Tepalikdagi **buloqning ko‘zi** ochildi”, “Randa **taxtaning ko‘ziga tegdi**”, “**Ikki ko‘zi har xil mollar bilan to‘la xurjunni** yelkaga tashlab, inqillab kirdi”, “Derazaning **singan ko‘zidan** shamol g‘uvullab kira boshladidi” gaplarini qiyoslash natijasida ko‘zi so‘zining ma’nolarini aniqlashi mumkin.

So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari qo‘llayotganligini farqlash uchun ularning har biriga ma’nodosh so‘zlar tanlash maqsadga muvofiqdir. Bu faqat bolalarning so‘z boyligini oshirishga emas, balki nutqda so‘zdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Chunonchi, “Bog‘imizda har xil **gul** bor. Ularni bobom o‘tqazgan” matni bilan “Bu hovlida bir **gul** bor, uning ismi Saodat...”, Ochildi bog‘ida bir otashin vard(atirgul), Demaykim vard, balkim shu’layi dard”(Navoiy), “Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz, Oyog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolbordim”(Bobur), matnlarini taqqoslash asosida **gul so‘zini birinchi matndagi uyadoshlari: daraxt, ko‘chat, buta va h. k; ikkinchi, uchinchi matnda esa qiz, o‘gil farzand; to‘rtinchi matnda gul kabi go‘zal yor, mahbuba, ma’shuqa so‘zlari ekanligi osonlikcha aniqlashadi**. Shubhasiz, bunday taqqoslashlar o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyoti uchun juda muhimdir.

Ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar) tilimizning leksik boyligi, nutqimiz go‘zalligi va ko‘rkidir. O‘quvchi sinonimlardan qancha ko‘p foydalana olsa, fikrini bayon

qilish imkoniyatlari shuncha yaxshi bo‘ladi. Sinonimlarni bilish nutqda takror qo‘llanilgan ma’lum bir so‘zni uning ma’nodoshi bilan almashtirish imkonini beradi. So‘zdan o‘rinli va unumli foydalanish malakasi shakllanadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar nutqini ma’nodosh so‘zlar bilan boyitish uchun quyidagi ish usullarini maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1.Berilgan so‘zlardan sinonimlar uyasini hosil qilish:

Masalan, o‘quvchilarga tuzuk, durust, salomlashmoq, maslahatlashmoq, istamoq, boshqacha, o‘zgacha, ajib, so‘rashmoq, maslahat qilmoq, xohlamоq, ko‘rishmoq, yaxshi, zo‘r, a’lo, gap yo‘q, kengashmoq, omonlashmoq, orzulamoq, salom-alik qilmoq, ahslashmoq, mashvarat qilmoq, tilamoq, ixtiyor qilmoq, sog‘inmoq, ajoyib, g‘alati, g‘aroyib, alomat, antiqa, bir navi, mixdek so‘zlar berilgan bo‘lsa, ular bu so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratishi mumkin.

1-guruh: Boshqacha — o‘zgacha — ajib — ajoyib — g‘alati — g‘aroyib — alomat — antiqa.

2-guruh: Tuzuk — durust — bir navi — yaxshi —zo‘r—a’lo — gap yo‘q—mixdek.

3-guruh: salomlashmoq— so‘rashmoq— ko‘rishmoq— omonlashmoq—salom-alik qilmoq

4-guruh: istamoq—xohlamоq—orzulamoq—orzu qilmoq—tilamoq—ixtiyor qilmoq

2.Ma’nodosh so‘zlarda ma’lum belgini oshib borishi yoki kamayishiga qarab ularni joylashtirish:

So‘zlarda ma’lum belgini oshib borishi yoki kamayishiga qarab ularni tartib bilan joylashtirish ham o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Masalan, o‘quvchilardan ot, qulun, toy, do‘nan, g‘unan; uy, hujra, kulba, xona, koshona, qasr, saroy kabi ma’no darajalanib borgan so‘zlarni belgining oshib borishi yoki kamayishiga qarab tartib bilan joylashtirishi talab etiladi:

1.Hujra-kulba-xona-uy-koshona-qasr-saroy;

- 2.Qulun-toy-g‘unan-do‘nan-ot;
- 3.Ko‘p, mo‘l, bisyor;
- 4.Hayoli, andishali, oriyatli, iboli;
- 5.Shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo‘kirmoq va hokazo.

3.Badiiy asarlardan sinonim so‘zlarga misollar topish:

Sinonimlar til boyligi bo‘lib, avvalo, shaxs va predmetlarning eng nozik ma’no bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, sinonimlar gapdagi takrorga yo‘l qo‘ymaydi.O‘rinsiz takror nutqqa putur yetkazadi.Shuning uchu ham badiiy asarlardan sinonimlarga misol topish mashg‘uloti maqasadga muvofiqdir.

Masalan: —Culshanda gullarni tebratar **sabo**,

Adashgan yo‘lchiday daydib yurar **yel.(U)**

—Men buyuk yurt **o‘g‘lidurman**,

Men bashar **farzandidurman(E.V)**

—**Falakdan, osmondan, ko‘kdan** oshgay faxr etib boshim (Habibiy)

—Erur bas chu husn-u malohat senga

Yasanmoq, bezanmoq ne hojat senga(N)

4.Paronim so‘zlar usida ishlash. O‘quvchilar nutqida uchraydigan xatolarning talaygina qismini talaffuzi yaqin, ma’nosini bir-biridan farq qiladigan paronim so‘zlar. (Masalan, tanbur-tambur, teri- tire, azim-azm, jodi-jodu,dakki-daqqi, bob-bop, jayron-jyiron, ziyrak- zirak, juda-judo, emakdosh-emikdosh, va h.k) tashkil etadi. Shuning uchun leksikologiyani o‘rganish jarayonida bunday so‘zlarga alohida e’tibor berish kerak. Masalan, emikdosh-bir onani emishgan(aka-uka, opa-singil), emakdosh esa eskirgan so‘z bo‘lib, kasbdosh, hamkasb ma’nosini bildiradi.

Berilgan paronim so‘zlar ma’nosini sharhlash ular yordamida gaplar tuzish, bu so‘zlarning ma’nodoshlari va uyadoshlari ustida ishlash kabi amaliy topshiriqlar o‘quvchilarning bu usullardan nutqda to‘g‘ri foydalanishlariga yordam beradi.

Topshiriq namunalari:

1-topshiriq: Dakki bermoq, dakki yemoq birikmalarini “daqqi ot, daqqi odam” birikmalari billan taqqoslang. Dakki va daqqi so‘zlarining tamomila boshqa so‘zlar ekanligini isbotlang.

Dakki- so‘qish, haqorat, tanbeh.

Otam umrining oxirigacha o‘z sha’niga, oilasi sha’niga gard yuqtirmaslik, odamlardan dakki- dashnom eshitmaslik uchun intilgan.(N.Nosirova)

Daqqi-ishlatilaverib ishdan chiqqan, holdan toygan, sharti ketib parti qolgan degan ma’noda ishlatiladi. Masalan, daqqi ot, yoki ko‘p ish ko‘rib yoki dashnom eshitaverib charchagan, loqayd bo‘lib qolgan odam haqida.

Sodiq bunday sovuq gaplarni ko‘p eshitib, daqqi bo‘lib qilgan.(S.Abdulla)

Shuningdek, bu so‘zning ko‘p gapiruvchi, mahmadona, vaysaqi kabi ma’nolarning bildirishi ham ma’lum.

2-misol: aro-ora-oro so‘zlari ishtirokida bittadaan gap tuzing. Ularning boshqa-boshqa so‘z ekanligini isbotlang. Bu so‘zlarga ma’nodosh so‘zlar tanlang.

Aro- o‘rtasida, o‘rtasidagi ma’nolarni bildiradi.Masalan, davlatlararo, xo‘jaliklararo.

Xiroj to‘lar edi Shosh fuqarosi,

Cho‘zildi, uzilmay janglar arosi. (M.Shayxzoda)

Oh urib maydon aro Rustam kabi solsam urush (“Nurali” dostoni)

Ora so‘zi esa ikki narsa yoki ikki nuqta o‘rtasidagi masofa.

Moskva bilan Toshkent orasi 3500 kilometr.Kolonnada mashinalar orasi uzoq, qariyb bir kilomertcha kelar edi. (M.Ismoilov)

Oro-zeb, pardoz ya’ni oro bermoq, zeb bermoq, pardozlamoq.

To‘lgan oydek to‘lg‘anib, ul qomati zebo yana,

O‘z jamoliga berib pardoz ila oro yana. (Habibiy)

Shunday qilib, leksikologiyani o‘rganish jarayonida o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar ustida ishlash, o‘quvchilar nutqini ma’nodosh, shakldosh, uyadosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar hamda iboralar, tasviriy ifodalar bilan boyitish, paronim

so‘zlarning ma’nolarini farqlash, ayni bir narsa –hodisaning ham ilmiy, ham badiiy tasvirini yaratish kabi amaliy ishlar bu bo‘limda foydali maqsadlarga xizmat qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Alavutdinova N.G.: *Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi (9-sinf misolida): Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2008.*